

AKADEMIK TO‘RA MIRZAYEVNING KUNDALIKLARIDAGI SO‘Z MAGIYASIGA OID QAYDLAR

Barno To‘rayevna MIRZAYEVA

filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

O‘zbekiston Respublikasi FA

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada To‘ra Mirzayevning 1977-yilgi Janubiy Tojikiston bo‘ylab uyushtirilgan Folklor ekspeditsiyasi davrida yozib borgan shaxsiy kundalik daftarlaridagi ba’zi qaydlar tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: folklor, ekspeditsiya, kundalik, badik, baxshi, folklorshunos.

ЗАПИСИ О СЛОВЕСНОЙ МАГИИ В ДНЕВНИКАХ АКАДЕМИКА ТУРЫ МИРЗАЕВА

Барно Тураевна МИРЗАЕВА

доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Институт узбекского языка, литературы и фольклора

Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье проанализированы некоторые записи из личных дневников Туры Мирзаева, сделанные им во время фольклорной экспедиции по Южному Таджикистану в 1977 году.

Ключевые слова: фольклор, экспедиция, дневник, бадик, бахши, фольклорист.

Eng qadim davrlardan beri og‘izdan-og‘izga o‘tib bizgacha yetib kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalarini yozib olish va o‘rganish maqsadida o‘zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifov boshchiligida juda ko‘p folklor ekspeditsiyalari tashkil etildi. Buyuk Karimiy, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Zubayda Husainova, To‘ra Mirzayev, Malik Murodov va boshqa folklorshunos olimlar ushbu folklor ekspeditsiyalarida ishtirok etdi. Hodi Zarifov folklor safarlari davomida folklor materiallarini yozib olish ishlari bilan birga dala yozuvlari bitilgan kundaliklarini ham joriy qildi. Bu kundaliklarda folklorshunoslarning safar chog‘ida ko‘rgan-kechirganlari, xalq ijrochisiga o‘z munosabati, ijrochi mahoratiga bahosi, ijro jarayoni va xalqning ijodkorga munosabati yozib borilgan.

Folklorshunoslar xalq ijodi namunalarini to‘plash va yozib olish maqsadida qishloqma-qishloq, ovulma-ovul kezar, xalq madaniyatini o‘rganar ekan, har bir ma’lumotni ekspeditsiya kundaliklariga qayd qilib borishgan. Kundaliklarni varaqlar ekanmiz, har biri o‘zgacha bir tarix. Masalan, folklorshunos olim To‘ra Mirzayevning 1977-yilgi Janubiy Tojikiston bo‘ylab uyushtirilgan Folklor ekspeditsiyasi kundaligida magik-mifologik qarashlar, kasal insonni davolash uchun aytiladigan aytimlar haqida, ularni yozib olish jarayonlari va mashshaqatlari haqida batafsil yoritilgan. Ushbu Folklor ekspeditsiyasida folklorshunos olimlar T.Mirzayev, S.S.Qosimov, Z.Husainova, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, R.Zarifov, shofer Davron To‘xtanazarovlar ishtirok etgan va talay ma’lumotlar bilan Folklor arxivi xazinasini boyitishgan. Janubiy Tojikiston bo‘ylab uyushtirilgan Folklor ekspeditsiyasi kundaligidan kattagina qayddan bir parcha keltiramiz:

“9.06.1977 y. Ertalab institutga kelib, yo‘lga otlandik. Sostavda – S.S.Qosimov, Z.Husainova, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, R.Zarifov, shofyor Davron To‘xtanazarov va men. Z.Husainovanning uyida tushlik qilib, yo‘lga tushdik. Bizni B.Sayimov, O.Sobirov, M.Mirzayeva va boshqalar kuzatib qoldilar. Janubiy Tojikiston folkloristik va etnografik nuqtai nazardan ancha o‘rganilgan. 1930-yilda Sh.Rajabiy “Dallixon” dostonini yozib olgan. Shundan keyin moskvalik olim B.Karmisheva o‘zbek-laqaylarini etnografik nuqtai nazardan o‘rganib, “Узбеки-Лакайсы Южного Таджикистана” (1954) kitobini e’lon qildi. 1976-yilda esa, umumlashtiruvchi kitobi bosilib chiqdi.

1962-yilda qo‘shqiyalik Ahmadjon Soyibnazarov Toshkentga chaqirilib, undan bir nechta doston va termalar magnitafonda yozib olingan edi. Men baxshini uyimga olib borib “Alpomish” dostonini yozib olgan edim, oralaridagi ayrim parchalarni ToshMIga kira olmagan abituriyent B.Sarimsoqov (*Filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov – B.M.*) yozgan.

1963-yilning iyul-avgustida men Dang‘ara, Sovet, Kolxozobod, Qo‘rg‘onteia tumanlarida bo‘lib, bir necha laqay va qo‘ng‘irot dostonchilarini aniqlagan edim. Ulardan “Alpomish”, “Xonimoy”, “Avazxonning Guldur ko‘liga safari”, “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” kabi dostonlarini yozib oldim, topishmoq va

maqollar to'pladim. Bu materiallar haqida mening bir necha maqolalarim ham e'lon qilindi. ("Alpomish" variantlarini izlab", "Qo'shqiylilik baxshi", "Tojikistodan yashayotgan o'zbek dostonchilari haqida", "Alpomish" nashrining o'zbek baxshilariga ta'siri" va boshqalar).

Tojikistonlik olim (hozir Samarqandda yashaydi va ishlaydi) M.Mirkamolova 1963–1968-yillarda Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasidan ko'p materiallar yiqqan. Bu materiallar Tojik folklori arxivi (Dushanbe)da saqlanadi. U bu materiallarning bir qismini umumlashtirib, "Tojikistonda tarqalgan o'zbek "Go'ro'g'li" dostonlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

60-yillarning oxirlaridan boshlab, Sh.Shoabdurahmonov rahbarligida aspirant T.Yo'ldoshev dialektologik materiallar yig'a boshladi va nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1974-yilda B.Sarimsoqov, Z.Husainova va F.Rayhonovlar Janubiy Tojikistonga maxsus ekspeditsiyaga kelib, bir qancha materiallar to'pladilar. Shu joylik (Lenin tumanidan) institut soiskateli (izlanuvchisi) Qurbon Ergashev urfodat va mavsum-marosim folklori bo'yicha materiallar yig'ib, uni o'rganmoqda...

Demak, bu gal ma'lum ma'noda o'tilgan yo'llardan o'tiladi, shu bilan birga yangi narsalar topiladi" (*Mirzayev T. Folklor ekspeditsiyasi kundaligi. Janubiy Tojikiston, 1977-yil (Shaxsiy arxiv materiallari).*

Tojikiston Respublikasi bo'ylab 1930-yildan buyon folklor ekspeditsiyalari o'tkazilib kelingan. 1930-yilda Sharif Rajabov 25 betdan iborat "Dallixon" dostonini, Xolmon Soqidan 258 betdan iborat "Go'ro'g'li" dostonini, 1934-yilda esa Mo'min Muhammadjonov tomonidan Janubiy Tojikiston laqaylaridan ertaklar, qo'shiqlar, terma va topishmoqlar yozib olingan. Ushbu qo'lyozma materiallar Folklor arxivi jvonlarida saqlanmoqda. 1962-yildan 1977-yilga qadar Janubiy Tojikistonga uyushtirilgan ekspeditsiyalarda juda ko'plab manbalar to'plangan va tadqiq etilgan. 1980–1982-yillarda yana Tojikiston Respublikasi bo'ylab folklor ekspeditsiyalari o'tkazilgan va so'z kulti bilan bog'liq magik-mifologik qarashlarga oid materiallar yozib olingan.

Qadimgi odamlar soʻzda ham moʻjizaviy qudrat mavjud deb bilganlar. Ular turli xil narsa-hodisalar singari soʻz ham insonga yaxshilik keltirishi, yoki aksincha, yovuzlikka roʻpara qilishi mumkin deb tushunganlar. Muayyan soʻzlar vositasida dushmanga taʼsir oʻtkazish, qargʻish orqali kishiga kasallik, oʻlim, falokat yoʻllash yoki aksincha, yaxshi tilaklar ifoda etilgan olqish soʻzlarni qoʻllash bilan esa ijobiy taʼsir koʻrsatish, davolash mumkinligi haqidagi tasavvurlar soʻz magiyasining asosiy mohiyatini tashkil etgan. Soʻz kulti bilan bogʻliq bunday magik-mifologik qarashlar qadimgi ajdodlarimiz kundalik turmushida soʻz sehriga ishonch bilan bogʻliq amallar, marosimlar, anʼanalarni yuzaga keltirgan.

Ekspeditsiyada olimlarimiz soʻz kulti bilan bogʻliq magik-mifologik qarashlar, “badik” va kasal boqish irim-sirimlari bilan bogʻliq folklor materiallar yozib olganliklari haqida kundalikda yozilgan batafsil maʼlumotlar bor.

“Zaynab momo Xudoyorova (80 yoshda): “Badik” badanga (koʻproq qoʻlga) toshadigan kasalni davolash uchun aytiladigan qoʻshiqning nomi. Kasallikning darajasiga qarab, oq (agar oqarib, suvi chiqib ketgan boʻlsa), qizil roʻmol yoki sholchani kasalning boshiga yopib qoʻyiladi. Dumaloq buvursoq, qurmoch (bugʻdoy qovuriladi) tayyorlanadi. Badikchi qurmoch va buvursoqni badikning har bandini aytgach, kasalning boshidan sepa beradi. Soʻng sepilgan buvursoq va qurmochni qushlarga sepadi. Qolgan buvursoq va qurmochni bolalarga boʻlib beradi. Oxirida Ollohdan madad tilab, fотиha oʻqiydi. Kasal boshiga yopilgan mato va kasal olib kelgan narsalar badikchida qoladi. Sizdovuq (chipqon) chiqqanda ham aytiladigan badiklar boʻlgan” (*Mirzayev T. Folklor ekspeditsiyasi kundaligi. Janubiy Tojikiston, 1977-yil*). Ushbu maʼlumotlar hozirgi kunda Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida 1767-inventar raqami ostida saqlanadi.

Yana bir qiziq maʼlumot: “1977-yilda Tojikiston Respublikasining janubiy hududlariga uyushtirilgan folklor ekspeditsiyasiga borishda Shahrison tumanining Qayirma qishlogʻiga qoʻnib oʻtishga toʻgʻri kelib qoldi. Ekspeditsiya aʼzolari qishloq chekasidagi koʻl boʻyiga joylashib ulgurmasidanoq, Asqar Musaqulov qishloq oralab ketdi. Bir-ikki soat oʻtar-oʻtmas keyinchalik bir qator tadqiqotlarga

asos bo'lgan "Badik"ning eng go'zal va badiiy jihatdan mukammal bir variantini yozib olib keldi. Bu folklor materialining ahamiyati shundan iborat ediki, o'sha paytga qadar o'zbek folklorshunosligida hali "Badik" to'la holida og'zaki ijroda yetib kelmagan, degan qarashlar mavjud edi. Ertasiga bu variantni magnitofonda yozib olib, yo'limizda davom etdik. Jonli ijroda kamdan-kam uchrashi mumkin bo'lgan, tobora unutilib borayotgan, so'z magiyasiga asoslangan bu janrning nisbatan mukammal variantining yozib olinishi folklor merosi xazinasini boyitish bilan birga yangi-yangi tadqiqotlar olib borishga keng imkoniyat yaratishi tabiiydir" [4].

Olima Muzayyana Alaviya 1946-yil 27-aprelda Ohangaron tumani, Nishobiy qishlog'ida Qorabosh Tuyaqovdan o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi marta so'z magiyasi bilan bog'liq folklor janrlaridan biri – badikni yozib olishga muvaffaq bo'lgan. Ushbu badik qo'lyozmasi Folklor arxivida 987-inventar raqami ostida saqlanadi. Folklorshunos olim Shomirza Turdimov 2020-yilda ushbu badik janriga mansub mantlarni e'lon qilgan [5].

Folklorshunos olimi Sh.Turdimovning ma'lumotiga ko'ra: "Gulapshon (ba'zi joylarda eshak yemi ham deyiladi), ya'ni tanasiga qizil donachalar to'shgan bemorga badikni maxsus badikchi o'qiydi. Badik chorshanba kunidan boshlab uch kun davomida o'qiladi. Har o'qishdan avval yetti dona sham eshiladi (somon naychasiga paxta o'ralib, unga zig'ir yog'i suriladi). Shamlar uch dona loydan yasalgan sokqalarga (ikkita sokqaga uchtdan, bitta soqqaga bir dona) suqib qo'yiladi. Gulashpon chiqqan odam xonaning o'rtasiga, yuzini qiblaga qaratib, ustiga qizil mato yopib, ikki qo'liga uchtdan sham suqilgan ikki soqqa ushlatilib, bitta sham qadalgan boshiga qo'yib o'tqaziladi. Shamlar momolar uchun yoqiladi. Badikchi bemorning orqasiga o'tib o'tiradi. Boshqa ishtirokchilar bemor va badikchi atrofida qur bo'lib joylashadi (bu kishilarning soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi). Badik birinchi kun o'qilganda maxsus bo'g'irsoq pishirilib, ishtirokchilarga tarqatiladi. Ikkinchi kuni bemorning toshmalari qovurilib ketsin, degan maqsadda qovurmach (bug'doydan) qilinadi. Uchinchi kun gulashpon butkul yo'q bo'lib ketsin, deb hech narsa qilinmaydi. Badikchi badik aytimini ijro

qilganida, uning “ko‘ch, ko‘ch, ko‘ch”, deb qo‘yishi barobarida davra ishtirokchilari ham chapak chalib jo‘r bo‘lishadi. “Ko‘ch” uch bor qarsak bilan aytilishi shart. Aytuvchi: Tangirova Uldonay. Navoiy viloyati, Nurota tumani, Paponay qishlog‘i”.

Folklorshunos olim B.Sarimsoqov o‘zining o‘zbek marosim folkloriga bag‘ishlangan monografik tadqiqotida marosimlarni tasnif qilib, kinna, badik, olqish, qarg‘ish, afsun, burey-burey va turli-tuman irim-sirimlar bilan bog‘liq aytimlarni kiritgan [1]. Bundan tashqari B.Sarimsoqov badik atamasini Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilgan bezgak-titramoq so‘zi bilan o‘zakdoshligini aytib o‘tgan [2].

Folklorshunos olim B.Sarimsoqov folklorshunoslik amaliyotida birinchi bo‘lib qoqimchi, azayimxon va baxshilarning turli xil kasallarni davolash amallariga doir etnofolkloristik materiallarni – qaytarma, qoqim, badik namunalarini yozib olgan. B. Sarimsoqov yozib olgan etnofolkloristik materiallar Folklor arxivida 1684- va 1699-inventar raqamlari ostida saqlanadi. U o‘zining “O‘zbek marosim folklorida “Badik” janri” nomli maqolasida: “Marosim folklori janrlaridan biri – badik janridir. Badik janri o‘zbek, qaraqalpoq, qirg‘iz, qozoqlar orasida keng tarqalgan. Shuningdek, tojiklarda ham ma‘lum bo‘lib, ularda u «gulcho‘shon» deb ataladi. Turkman folklorida esa bu janr uchramaydi” [3], – deydi.

Folklorshunos olim O.Qayumov: “Badik atamasining etimologiyasini zo‘rma-zo‘raki turkiylashtirish ham o‘zini oqlamaydi. Xalq orasida badik kishining badaniga toshadigan toshma – yaraning nomi. Mazkur toshma yovuz ruhlar ta’sirida paydo bo‘lgan degan shomoniy tasavvur natijasida shomonlar badik so‘zi bilan boshlanadigan, mazmunan badikka murojaatni ifodalagan qo‘shiq ijro qilishadi. Badik janri ko‘pincha, qushnoch (shomon)lar tomonidan badaniga toshma toshgan bemorni muolaja qilish jarayonida ijro qilinadi. Mazkur janrga xos matnlarda badikka murojaat, badikning jonli mavjudot sifatidagi tavsifiy tasviri, uning qaerda paydo bo‘lganligini prognozlash, uning ko‘chishi uchun manzil ko‘rsatish motivlari yetakchilik qiladi”, deydi [7].

Folklorshunos olimlar T.Mirzayev, O.Safarov, D.O‘rayevalar tomonidan universitetlarning o‘zbek filologiyasi va pedagogika institutlarining o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishlari uchun chop etilgan xrestomatiyasida o‘zbek shomon marosimi folklorining kinna, badik, olqish, qarg‘ish kabi janrlaridan namunalar e’lon qilgan [6].

Bizning qo‘limizdagi ma’lumotlarga qaraganda, badik asosan Markaziy Osiyo va Qozog‘istonning shimoliy hududlarida tarqalgan. Ammo janrning eng yirik namuna va ko‘rinishlari mamlakatning janubiy va sharqiy hududlarida qayd etilgan. Bu holat 1977-yilda T.Mirzayev ishtirok etgan folklor ekspeditsiyasida ham tasdiqlangan.

Badik – bu duo va so‘z bilan bajariladigan marosim bo‘lib, qizamiq kabi kasalliklar paytida o‘tkazilgan. Badik marosimining asosiy mohiyati shundaki, kasallik doimo ko‘chib yuradi va u duo yordamida bemordan haydalib, boshqa odam, hayvon yoki hatto jonsiz biror narsaga ko‘chirilishi mumkin, degan e’tiqod mavjud bo‘lgan.

Badik matnini (duoni) aytish huquqi hammaga berilmagan, balki faqat “tanlanganlar”ga, ya’ni ruhiy himoyachilarga xos bo‘lgan. Bu “tanlanganlik” tushunchasi qadimiy e’tiqodlar bilan uzviy bog‘liq. Shu bois badikchilikning ildizlari shamanchilik marosimlari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

T.Mirzayevning kundalik qaydlarida badikka shunday ta’rif berilgan: “Kasallik (qichima)ga aytiladigan aytim “Badik” deyiladi. Jin tekkanlarni boqadiganlarni – baxshi (baxshilik), folbin deyiladi. Ular erkak va ayollardan bo‘ladi. Baxshilar kasalni o‘rtaga qo‘yib, davra qilib, childirma chaladi va “Oblo hu”ga ayollar jo‘r bo‘ladi. Doiraning qasqoni bilan kasalni har zamon avjiga chiqqanda turtib turadi. So‘yilgan molning bir qismini sho‘rva qilib, ikkinchi qismini olib ketish uchun xom saqlaydi. Baxshilar sho‘rvadan tashqari bo‘g‘irsoq, chuchvara, chalpak pishirishni buyuradi. Aytib bo‘lgach, fotiha o‘qiydi. Dasturxon yoziladi. Sho‘rvaning go’shtini baxshi o‘z qo‘li bilan tarqatadi” (Mirzayev T. Folklor ekspeditsiyasi kundaligi. Janubiy Tojikiston, 1977-yil). Ekspeditsiya davomida badikchilardan yozib olingan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, badik

marosimining asosiy qoidalari an'anaviy tarzda saqlanib qolgan. Bemor avvalo badikchiga murojaat qiladi. Badikchi ruhni chaqirib, kasallikka qarshi so'z aytadi va undan bemorni tark etishini talab qiladi. Marosim o'tkazish tartibi va bajarilish uslubi turli hududlarda turlicha bo'lgan. Ba'zi joylarda marosimni yakka shaxs bajargan bo'lsa, boshqa joylarda butun guruh ishtirok etgan.

Ekspeditsiya a'zolari 14-iyun kuni ertalab Qo'rg'on tepa viloyati, Yovon tumani, Sho'rcha qishlog'iga kelganliklari va u yerdan maktab o'qituvchisi Tojiddin Abdurahmonov bilan uchrashganlari, o'qituvchi qishloqda kina ko'taruvchilar bo'lganligi haqida ma'lumot berganligi yozilgan.

Mening otim Elomon,

Eldi axtarib yuraman.

Men bor yerda sen nima qaraysan,

Suqdan bo'lsang, chiq,

Ko'zdan bo'lsang, chiq.

(Ushbu badikdan parcha Tojiddin Abdurahmonovdan yozib olingan. (Mirzayev T. Folklor ekspeditsiyasi kundaligi. Janubiy Tojikiston, 1977-yil).

Badik asosan shifobaxsh vazifa bajarishga qaratilgan. Badikning asosiy mohiyati kasallikni keltiruvchi deb tasavvur etilgan "jin", "arvoh" yoki turli g'ayritabiiy kuchlarni haydash, shu orqali bemorni sog'aytira olish haqidagi qadimiy e'tiqod bilan bog'liqdir.

"Badik" so'zining kelib chiqishi haqida turli mulohazalar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uni turkiy xalqlardagi "bod" (shamol, ofat) atamasi bilan bog'laydilar. Demak, "badik" – shamol yoki ruhiy kasallikni haydash bilan bog'liq marosimiy qo'shiq sifatida shakllangan. O'zbek tilining izohli lug'atida "badik" folklorshunoslik nuqtai nazardan bemorni so'z yoki ashula aytish yo'li bilan davolash usuli, deb yozilgan.

Badikning asosiy xususiyatlari:

1. Shifobaxsh maqsadda qo'llanilgan. Badik odatda kasal insonni davolash, undan "jin", "ofat" yoki kasallikni haydash uchun o'qilgan.

2. Qo'shiq va duo orasidagi shakl. Unda she'riy matn bilan birga maxsus qaytarma so'zlar, duoga o'xshash iboralar, hatto so'z o'yinlari ham ishlatiladi.

3. Marosimiy xususiyat. Badik ko'pincha marosim tarzida aytiladi: kasal yotgan xonada, davra qurib, bir necha kishi ishtirokida. Aytish jarayonida qo'shiqqa raqs, harakatlar ham qo'shilishi mumkin.

Folklorshunoslarning fikricha, "Badik" qadimgi shamanizm bilan bog'liq, keyinchalik islomiy duolar ta'sirida ham o'zgargan. U insonning tabiat va ruhiy kuchlarga ishonchi ifodasi sifatida ahamiyatga ega. Badik o'zbek folklorida ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo, Janubiy Farg'onada ko'p uchraydi. Badik nafaqat davo maqsadida, balki odamlarni birlashtirish, ularga ruhiy quvvat berish, ko'nglini ko'tarish vazifasini ham bajargan.

Xulosa qilib aytganda, "Badik" janri o'zbek xalq og'zaki ijodida qadimiy marosimlarga borib taqaladigan, insonning hayot va sog'lik bilan bog'liq tasavvurlarini ifoda etuvchi alohida folklor turidir. U orqali xalq dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlar, tabiat va inson munosabati hamda og'zaki poetik an'analarning qadimiy qatlamlari namoyon bo'ladi. Janrning ilmiy o'rganilishi xalqning diniy-mifologik tasavvurlari va so'z orqali shifolash an'alarini tahlil etishda folklor ekspeditsiya kundaliklari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986.
2. Саримсоқов Б. Маросим фольклори / Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1988.
3. Саримсаков Б. Жанр "Бадик" в обрядовом фольклоре узбеков // Советская этнография, 1986. – №4. – С.117-123.
4. Ўзбек халқ лирикасининг йирик тадқиқотчиси / Устозлар, сафдошлар, издошлар. – Тошкент: Tafakkur tomchilari, 2021.
5. Ўзбек халқ кўшиқлари /Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва илмий изоҳлар муаллифи Ш.Турдимов. – Тошкент: Фан, 2020. – 287 б.

6. Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижоди. Хрестоматия / Нашрга тайёрловчилар: Т.Мирзаев, О.Сафаров, Д.Ўраева. – Тошкент, 2007.

7. Қаюмов О. Ўзбек шомон маросимлари фольклор (спецификаси, генезиси, жанрлар таркиби ва поэтикаси): Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2020.

8. Mirzayeva B. Theoretical Foundation of Uzbek Folklore // European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). Volume 3, Issue 3. Mart 2023. – P. 90-93. <http://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/1545>